

## MAKTAB TASHKILOTLARINI BOSHQARISHDA DIREKTOR O'RINBOSARLARNING KASBIY MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH

**Yuldashev Begzodjon Baxtiyorjon o'g'li**

*Xalqaro Nordik Universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lim tizimida rahbar kadrlarning ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy va iqtisodiy sohaga oid bilimlarini yanada shakllantirish, ta'lim muassasasida, jamoatchilik oldidagi mas'uliyati, vazifalari haqida fikrlar, kasbiy ma'naviyat tushunchasi bugungi davrda amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi an'analarimizning saqlanishi, bu esa madaniyat va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liq ekanligi aks ettirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kasbiy ma'naviyat, rahbar shaxsi, rahbar kadrlar, kasbiy faoliyat, ma'naviy-axloqiy kamolot, ta'lim tizimi, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat*

### KIRISH

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosiy hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Biz tarixiy bir davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch osoyishta hayot kechirayotgan avvalombor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritadigan bir davrda yashamoqdamiz. Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasdan, yoshlarimiz esa o'z kuch-qudratlariga ishonib, yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda yashayotgan ekan bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz beqiyos ahamiyat kasb etadi.

### Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Bizga ma'lumki, 2019 yil 19 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mazkur yig'ilishda davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Ushbu masalalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining xam o'ziga xos yondashuvi bo'lmog'i lozim. Rahbar shaxsi barkamolligi, qat'iy xarakteri, milliy qiyofasidan tashqari, bir qator qobiliyatlarga ega bo'lishini taqazo etadi. Bu esa o'z navbatida rahbarning obro' qozonishiga puxta negiz hozirlaydi, lavozimning keyingi bosqichlari uchun imkon

yaratadi, istiqbol rejalarini ro'yobga chiqaradi. Rahbar shaxsida quyidagi qobiliyatlar bo'lishi kerak: tashkilotchilik qobiliyati, rahbar bozor iqtisodiyoti davrida o'ta uddaburon, ishbilarmon, muaassasaning oldida turgan vazifalarni maqsadga muvofiq, sobitqadamlik bilan bajarishi lozim. Bunda ishlab chiqarishni moliyaviy- iqtisodiy masalalarini to'g'ri va oqilona tashkil etish; yangi g'oyalar, texnologiyalar, chet el tajribalarini mahalliy sharoitga moslashtirgan holda amaliyotga tadbiiq etish; favquloddagi ishlab chiqarish muammosini tezkorlik bilan hal qila bilish; o'rni kelganda o'rinbosarlar, yordamchi va xodimlarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda rag'batlantirish, jazolash, tanbeh berish, e'tiroz bildirish, real va'dalar berish orqali murosaga keltirish; tobe insonlarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda faoliyatlarini tashkil qilishga odatlanish; ishni ratsional taqsimlash; korxonada istiqboli va xodimlar ijtimoiy himoyasi uchun hamisha qayg'urish, g'amxo'rlik qilish kabi dolzarb vazifalarni hal etish kabi mas'uliyatni his etmog'i lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, zamonaviy rahbarlarni tayyorlash va malakasini oshirish mobaynida iloji boricha shaxsning o'z-o'zini anglashi, o'z e'tiqodi va qadriyatlarini hayoti davomida aniq ifodalash choralari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish lozim. Axir, aynan, ichki poklik, samimiylik va inson tabiatining yaxlitligi o'zgaga ta'sir etishdagi asosiy kuch sifatida maydonga chiqadi. Rahbarni tayyorlash, uning ta'lim menejmenti sohasida malakasini oshirish bilan bog'liq har qanday tadbiiq rahbar shaxsi, uning boshqaruv mahoratini takomillashtirish, o'zgalarga ta'sir etish ko'lamini kuchaytirish masalasini maqsad qilib qo'yadi.

Milliy qadriyatlarimiz ulug'vorligining o'ziga xos belgisi sifatida ma'naviy-axloqiy yetuklikka ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina mutasavvuf donishmand, yurtparvar shoir Hoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyoda ilk tasavvufiy tariqat - «Yassaviya»ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Movarounahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan yetuk inson sifatida tanilgan. Ozodlik va yurtparvarlik yo'lida fidoyilik namunasini ko'rsata olgan, nafaqat o'z xalqining, balki umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarni e'zozlagan buyuk vatandoshlarimiz, o'zbek farzandlari

– Shiroq, To'maris, Mahmud Torobiy, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Dukchi Eshon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosirlarning mustaqillik, erk va erkinlik, ma'rifat yo'lidagi ulkan jasoratlari, milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizning oliy namunasidir. Pedagogning kasbiy tarbiyaviy faoliyatiga xos fidoyilik, ya'ni o'z bilimi va tajribasini yoshlarning farovon hayot yo'lini belgilab berishga yo'naltira olsa, alloma G'azzoliy tabiri bilan aytganda, haqiqiy ustozlik maqomiga ega bo'ladi.

Ustoz – murabbiy chinakam donishmand darajasidagi inson hisoblanadi. Demak, har qanday ilmi, bilim, tajribali odam ham donishmand bo'la olmas ekan. Ta'kidlash joizki, qadim-qadimlardan mo'tabar zaminimizda yashab kelgan alloma va mutafakkir ajdodlarimiz ham barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratganlar.

Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi ma’naviy- axloqiy qarashlari jamiyat ma’naviy hayotini rivojlantirishda, shuningdek, rahbar kadrlar va yosh avlodni axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda muhim o’rin tutadi. Ma’lumki, inson kamolotga yolg’iz o’zi erisha olmaydi. U boshqalarning mehr va ardog’iga, ko‘magiga muhtoj bo‘ladi. Farobiyning ta’kidlashicha: “Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi”.

Shuningdek, alloma aqlni ma’naviy-axloqiy kamolotga erishishning eng asosiy vositasi deb aytadi. “Har bir inson boshidan komil emas, ammo tug‘ma ravishda o‘ziga xos bo‘lgan ichki shuuri ila bosqichma-bosqich komillikka jiddu-jahd bilan intiladi. Ma’lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi xisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Unib-o’sib kelayotgan yosh avlod qalbida mustahkam hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish maqsadida vatanparvarlik tarbiyasi sohasida mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob tizim yaratilib, hozirgi kunda uning doirasiga mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari qamrab olinmoqda. Buyuk bobokalonimiz, mutafakkir olim Abu Nasr Farobiyning quyidagi so‘zlari buning dalilidir. Barkamollikka erishishning eng muhim vositalari ta’lim va tarbiyadir. Ta’lim - nazariy ximmat ezgulikka o’rgatsa, tarbiya - ezgu axloqiy sifatlarga o’rgatadi. Oliy axloqiy fazilatlar inson xatti-harakatida namoyon bo‘luvchi bilimdonlik, donolik va ko‘pchilik maqsadlarni o‘z shaxsiy maqsadlaridan yuqori qo‘yish, haqiqatga, muhabbatga, yuksaklikka intilish, adolatni sevishdir.

Aqlli kishi deb shunday kishiga aytiladiki, unda o’tkir zehn-idrok bo’lishi bilan birga, fazilati ham bo’lsin. Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o’tkir muloxazali, foydali ishlarga berilgan, zaruriy narsalarni kashf etishda zo’r iste’dodga egalar, deb hisoblaydi. Ma’naviy barkamollik deganda, birinchi navbatda, insonning tafakkurlash madaniyati aqlu-zakozati nazarda tutiladi. Ma’naviy barkamollik o’z ichiga aqliy salohiyatni qamrab oladi. Insonga xos fikr yuritish tarzi aqlu-zakovat, intellekt tushunchasida o’z ifodasini topadi.

#### Taklif va mulohazalar

Rahbarlarga qo‘yiladigan quyidagi ma’naviy mezonlar esa, yetuk shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, har bir rahbar, avvalo, ko‘ngli ochiq, qalbi toza, aql-zakovat sohibi, yuksak salohiyatli bo’lishi kerak. Boshqalarga yetakchilik qilishga, birinchi galda, halol va diyonatli, xalqparvar insonlar tanlanmasa, ko‘zlangan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, rahbar o‘zini tarbiyalab voyaga yetkazgan, ishonch bildirib yuqori lavozimga munosib ko‘rgan xalqiga halol xizmat qilishi, zimmasidagi ulkan mas’uliyatni doimo chuqur his etishi lozim. U xalq oldida, yurt oldida javobgar ekanligini unutmasligi kerak. Muhtaram Prezidentimizning «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari

xalqqa xizmat qilishi kerak» degan tamoyili barcha bo'g'indagi rahbarlar faoliyatida asosiy qoidaga aylanishi zarur.

Uchinchidan, rahbar qo'l ostidagi tajribali, o'z ishining bilimdoni bo'lgan mutaxassislarga tayanishi, jamoaning fikriga asoslanib xulosa chiqarishi kerak. Bugungi rahbardan barcha sohalarni yaxshi bilish, iqtisod, axborot texnologiyalari, huquq, siyosat va ma'naviyat ilmlaridan xabardor bo'lish, yangi

innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish talab etilmoqda. Shu bois ham u doimo izlanib, o'z bilim va malakasini yuksaltirib, yangicha tafakkur tarziga ega bo'lishi lozim.

To'rtinchidan, rahbarning ish uslubi va u qabul qilgan qarorlar faoliyat samaradorligiga xizmat qilishi kerak. Rahbar boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik usullaridan voz kechishi, rasmiyatchilikka berilmasligi muhim. Kimlargadir yaxshi ko'rinish, maqtanish uchun qilingan ish ko'zbo'yamachilik bo'lib, faqat salbiy oqibatlarga olib keladi.

Beshinchidan, har qanday rahbarda tashabbuskorlik, qat'iyat va talabchanlik bo'lmog'i shart. Talabchanlikni zo'ravonlikka, qat'iyatni manmanlikka aylantirish o'ta kaltabinlikdir. Bunday illatlar rahbarni yaxshi mutaxassis kadrlar va samimiy insonlardan uzoqlashtiradi.

Oltinchidan, rahbar qo'l ostidagilarni tanish-bilish va mahalliychilik hamda shaxsiy sadoqatiga qarab tanlamasligi lozim. U jamoadagi yaxshi mutaxassislarni qadrlashi, ularning xizmat faoliyati davomida orttirgan boy amaliy tajribalaridan unumli foydalanishga intilishi kerak. O'qituvchilarga:

- O'quvchilarning o'z maqsadlarini teran anglagan holda faoliyat yuritishlarini ta'minlash;

- O'quvchilarni ma'naviyatini yuksaltiruvchi turli xil davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil qilish;

- Buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatziyasiga ta'sir ko'rsatgan asarlari bilan tanishtirish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish maqsadida turli xil ko'rik-tanlovlar, musobaqalar tashkil etish hamda o'quvchilarning faol ishtirok etishlarini ta'minlashlari zarur.

#### XULOSA

Demak, shaxsda kasbiy-ma'naviy fazilatlarni tarbiyalashning bosh maqsadi – uning kundalik hayotda, kasbiy faoliyatida, shaxslararo munosabatlarida va kasbiy muloqotlarida namoyon bo'luvchi yuksak ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Shuningdek, oliy ta'lim tizimining pedagogik yo'nalishidagi malaka talablarini to'laqonli bajarilishini qamrab olinganligi, o'quv dasturlari dars va darsdan tashqari faoliyatga qo'yilgan talablarga mos ravishda tashkil etish, belgilangan ko'rsatkichlarga erishish, talabalarning kasbiy ma'naviy faoliyatga tayyorgarligini talab darajasiga yetkazadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda barcha sohalarda olib

borilayotgan tub islohotlarning nechog'li muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, bugun har bir bo'g'indagi rahbarning mas'uliyati va kundalik faoliyatiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, rahbarning faoliyati Vatan taraqqiyoti, mamlakat kelajagi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga yo'naltirilgan bo'lib, chinakam rahbar odamlarning ko'ngliga yo'l topib, atrofdagilarni ezgulikka, yaxshilikka, yangilik yaratishga da'vat qiladi. Eng muhimi, o'zi ham bu yo'lda butun borlig'ini, bor bilim va salohiyati, kuch-g'ayratini ishga solib, jamiyat istiqboli uchun fidoyilik va sadoqat bilan, vijdonan xizmat qilmog'i lozim. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, «Haqiqiy rahbar, haqiqiy etakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og'irini engil qilish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo'g'indagi rahbarlar o'zining odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lishi zarur».

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston-2030" straregiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. – T., 2016.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videosektor yig'ilishida belgilab berilgan beshta muhim tashabbus.
5. M.Toshov. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy , tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma.-214-bet.EFFEGT-D nashriyoti,
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-sonli Konseptsiyasi.
7. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish va uning uslubiy ta'minotini kengaytirish borasidagi taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi"ni, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Milliy g'oyani rivojlantirish kontseptsiyasi va yo'l xaritasini ishlab chiqish
8. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. –B.421
7. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. // Farobiy hikmatlari. - Toshkent: Abdulla Qodiriy. 1993. b.182
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2. -Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2006. B. 216.
9. Islom ma'rifati va hozirgi zamon. Xalqaro konferentsiya materiallari to'plami. "Toshkent islom universiteti" Toshkent. 2017. B - 88.

10. Uktamovich, R. B., & Rakhmatullaevna, R. D. (2019). FEATURES OF STUDYING THE LEVEL OF PSYCHOLOGICAL READINESS OF A SEVENYEAR-OLD CHILD'S ADAPTATION TO SCHOOL. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol.